

**MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK – MILLIY TAFAKKURNI UYG'OTGAN
MILLAT FIDOIYSI****Fayzullayeva Shahrizoda Alimardon qizi***shahrizoda215@gmail.com*

TTYSI, "Iqtisodiyot" fakulteti 13-25-guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19624979>

Annotatsiya. Maqola O'zbekiston adabiyotining buyuk vakillaridan biri — Oybek ijodini o'rganishga bag'ishlangan. Unda Oybekning tarix, shaxs, jamiyat va milliylik mavzulariga qaratilgan ijodiy yo'li, tarixiy va badiiy asarlari, xususan, "Navoiy" va "Qutlug' qon" romanlari tahlil qilinadi. Muallif Oybek ijodidagi insonparvarlik, xalqparvarlik va tarixiy voqealarni badiiy tafakkur orqali jonlantirish xususiyatlarini yoritadi. Shuningdek, maqolada yozuvchining hayoti, sinovlar davridagi fidoyiligi va jamiyatga yordam berish faoliyati ham ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Oybek, tarixiy roman, Alisher Navoiy, shaxs va jamiyat, milliy tafakkur.

Аннотация. Статья посвящена изучению творчества выдающегося узбекского писателя Ойбека. В ней анализируются его поэтические и прозаические произведения, взаимоотношения личности и общества, истории и литературы, вопросы национальной идентичности и современности. Особое внимание уделено романам «Навои» и «Святая крови», на примере которых раскрывается гармония исторического и художественного мышления, а также ценности гуманизма и народолюбия. В статье рассматривается жизнь писателя, воспоминания современников и значимость его произведений для современности.

Ключевые слова: Ойбек, исторический роман, Алишер Навои, личность и общество, национальное мышление.

Absrtact. In this article is examines Oybek's works through the relationship between history, literature, and the individual. Using Navoi and Qutlug Qon as examples, it analyzes historical authenticity, artistic interpretation, and the issues of individual and society, as well as national identity. The relevance of Oybek's literary legacy for contemporary readers is highlighted.

Keywords: Oybek, historical novel, Alisher Navoi, individual and society, national consciousness.

O'zbek adabiyotida shunday ijodkorlar borki, ularning asarlari faqat badiiy matn bo'lib qolmay, balki tarix, jamiyat va inson ruhiyatini anglash uchun muhim manbaga aylanadi. Ana shunday siymolardan biri — Oybekdir. Oybek ijodi adabiyot va tarix, shaxs va jamiyat, milliylik va zamonaviylik o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni chuqur ochib berishi bilan ajralib turadi. Uning asarlarida tarix tiriklashadi, inson esa markazga chiqadi.

Oybek adabiyot maydoniga 20-yillarning boshlarida dastlab lirik shoir sifatida kirib kelgan. Uning ilk she'riy asarlari hali u texnikumda o'qib yurgan kezlarda yozilgan. Oybekning matbuotda e'lon qilingan birinchi she'ri "Cholg'u tovushi" deb ataladi. Keyinchalik shoirning "Tuvg'ular", "Ko'ngil naylari", "Mashala", "Armug'on" singari she'rlar to'plamlari birin ketin yuzaga kela boshladi. Bu asarlar yangi O'zbek she'riyatiga nodir bir iste'dod sohibi kirib kelganligidan dalolat beradi. U iqtisodiyot fakultetini tamomlagan shaxs bo'lib bir necha yil shu sohada ishlaydi va she'rlar yozib ijod qiladi. Ammo shoirlik, yozuvchilik hissi uni tark etmagandan yozuvchi bo'lishni tanlaydi.

Oybekning ijodiy yo‘li tasodifan boshlanmagan. Bu holatni yozuvchining o‘zi ham 1966 yil “Drujba narodov” jurnalining avgust sonida Naumov bilan bo‘lgan suhbatida alohida ta’kidlaydi. “Ijodiy yo‘lingiz qanday boshlangan?” degan savolga Oybek maktabda o‘qib yurgan kezaridayoq Sharq klassikasi bilan tanishganini, Hirotlik buyuk Alisher Navoiy va ozarbayjonlik Fuzuliy ijodi unga kuchli ta’sir qilganini aytadi.

Keyinchalik Pushkin, Qodiriy kabi yozuvchilar bilan tanishuvi uning adabiy dunyoqarashini yanada kengaytirgan. Aynan shu jihat Oybekni boshqa ko‘plab yozuvchi va olimlardan farqlaydi: u faqat bir adabiy maktab yoki bir davr doirasida qolib ketmagan, balki Sharq va G‘arb tafakkurini uyg‘un holda o‘zlashtirgan ijodkordir.

Hatto u men nega Pushkinga kech qiziqib qoldim degan ekan. Oybek tarix va adabiyot munosabatiga alohida e’tibor bilan qaragan. Bu suxbat davommida “siz o‘zingizning yirik poetic asarlaringizda va ayniqsa prozangizda doimo tarixga, olisdagi yaqin o‘tmishga murojat qilasiz.

Tarix va adabiyotning o‘zaro aloqasi nimada deb savol berilganda, u adabiyot doim tarixdir, tarix esa doim adabiyotdir, deya ta’kidlaydi. Voqealarni qog‘oz pergament biror nimaga tushirish uchun avval uni tasavvur qilish kerak va bunga tarix ko‘maklashadi degan ekan.

Yozuvchining fikricha, tarixiy romandagi asosiy narsa boshqa har qanday asardagi kabi insondir. Xalq esa tirik ijodkordir. Tarixiy romanda qahramon faqat “zaruriy shaxs” bo‘lishi shart emas, balki u kim bo‘lishidan qat’i nazar, haqiqatga suyangani, orzu va his-tuyg‘ulari murakkab bo‘lgan tirik inson bo‘lishi kerak. Bu qarash Oybek ijodining insonparvarlik mohiyatini ochib beradi.

Oybek ijodining eng yuksak namunalaridan biri — “Navoiy” romani hisoblanadi.

Yozuvchi bu asarni qanday yaratgani haqida ham o‘sha suhbatda qimmatli fikrlar bildiradi. Uning aytishicha, 1936 yilda “Navoiy” nomli kichik poema yozilgan bo‘lib, bu asar go‘yo kelajakdagi roman uchun chizilgan dastlabki eskiz edi. 1942 yilda esa “Navoiy” romani yaratildi. Bu roman ustida ishlash jarayonida Oybek Alisher Navoiyning barcha asarlarini o‘qib chiqadi, u yashagan davrni, urf-odatlarini, jamiyat xarakterini, sotsiologik muhitni chuqur o‘rganadi, ko‘plab tarixiy fakt va ma’lumotlarni yig‘adi.

Yozuvchi bu ishga shu qadar qiziqib ketadiki, asarning aniq rejasi hatto qog‘ozda ham bo‘lmaydi. Oybek romanda shunday bir maqsadni ko‘zlaydi: Navoiy hayoti orqali milliy tafakkur, adabiy meros va insoniy qadriyatlarni o‘rganish, tarixiy voqealarni shaxsiy, ma’naviy tajriba bilan uyg‘unlash, xalqparvarlik, adolat va ilmlarga e’tibor kabi qadriyatlarni targ‘ib qilingan.

Insonlar, Navoiy orqali halollik, mehnatsevarlik, bilimga chanqoqlik, milliy g‘urur kabi qadriyatlarni o‘rganadi. Tarixiy roman bo‘lishiga qaramay, asar siyosiy propogandaga emas, balki ma’naviy va intellektual tarbiyaga xizmat qiladi. Oybek o‘quvchiga shuni o‘rgatadi: tarixiy shaxslar bilan tanishish orqali o‘z jamiyatimiz va bugungi kunimizni tushunish mumkin. Asardagi Navoiy asarning markaziy qahramoni.

Faqat shoir va davlat arbobi emas, balki xalqparvar inson, tafakkurli, dono, adolatli va bilimga chanqoq. Oybek tarixiy haqiqat va badiiy fantaziya o‘rtasidagi muvozanatni juda nozik his etgan ijodkor edi. Masalan, Navoiy va Husayn Boyqaro obrazlari bilan bog‘liq ayrim boblar tarixiy haqiqatga asoslangan bo‘lsa, ayrim sahnalar zamon xarakteriga mos holda yozuvchining ijodiy tasavvuri mahsulidir. Yoki Navoiy va Jomiy suhbatini olaylik: bu suhbatning o‘zi tarixiy haqiqat bo‘lsa-da, Jomiyning uy jihozlari, yuz ifodasi, kitob ustidagi chuqur mutolaasi, dunyoqarashi yozuvchining fantaziyasi va badiiy mehnati natijasida jonlantirilgan.

Bu hol Oybekning tarixni ko'chirib qo'yg'an emas, balki uni badiiyat orqali tiriltirgan adib ekanini ko'rsatadi. Oybek hayoti ham ijodi kabi murakkab va sinovlarga boy bo'lgan.

Uning rafiqasi tomonidan yozilgan "Oybegim mening" kitobida bu holatlar samimiy tarzda bayon etiladi. Oybek 1930-yillardan boshlab Navoiy shaxsiga chuqur qiziqqa boshlagan, roman ustida uyida tinimsiz ishlagan. Asar tugallangach, 1946 yilda u Stalin mukofotiga sazovor bo'ladi.

Moskvalik bir arman muhandisidan kelgan xatda "Navoiyga o'xshamagan adib Navoiy haqida bunday roman yoza olmaydi", degan fikr bildirilgani ham yozuvchining ijodi xalqaro miqyosda e'tirof etilganidan dalolat beradi.

Oybek nafaqat yirik nasr ustasi, balki nozik didli shoir ham edi. Uning she'rlarida obrazlar nihoyatda nafis va ta'sirchan tasvirlanadi. Masalan, "Qorako'z" she'rida ayol qiyofasi o'ta badiiy ifoda bilan yoritiladi:

Qorako'z nechun o'ldi?

Ko'zlari yosh bilan to'ldi.

U endi nozli malak,

Rahm etmas ekan falak.

Bu misralarda insoniy tuyg'ular, taqdir va iztirob bir necha satrda mujassam bo'ladi.

Yoki boshqa bir she'rida Oybek Alisher Navoiyni nuroniy siymo sifatida tasvirlaydi:

Asrlarga yetib xayolni,

Ba'zan yorqin ko'raman.

Cholni nuroniy yuz, nuroniy soqol,

Ko'zlarida muhabbat malol

Bu she'r Oybek uchun Navoiy shunchaki tarixiy shaxs emas, balki tirik, ruhiy jihatdan yaqin timsol bo'lganini ko'rsatadi.

Oybek ijodida shaxs va jamiyat muammosi muhim o'rin tutadi. "Qutlug' qon" asarida bu masala alohida teranlik bilan ochilgan. Asarda inson taqdiri, jamiyat oldidagi mas'uliyat, tarixiy jarayonlar fonida shaxsning ichki kechinmalari yoritiladi. "Qutlug' qon"ni o'qigan kitobxon nafaqat tarixiy voqealar bilan tanishadi, balki jamiyat va inson o'rtasidagi murakkab munosabatlar haqida chuqur mulohaza yuritishga majbur bo'ladi.

U asarida maqollar iboralar ishlatgan. Bundan tashqari, yozuvchi xalq maqol va hikmatli so'zlari darajasida turuvchi "Yer sotgan - er bo'lmaydi, er - yer sotmaydi", "Jabirning to'qmog'iga toqat yo'q", "Xalq o'z ishini bilib qiladi", "O'tinsiz qozon qaynamaydi" singari sermazmun, chiroyli jumlar va obrazli iboralar yaratgan.

Oybekning adabiyotshunoslik va badiiy tarjima sohasidagi xizmatlari ham buyukdir. "Qutlug' qon" asarining davomini yozish so'ralgan paytda esa u "Ulug' yo'l" romanini yaratadi. Ijodan voz kechmagan bu matonatli adib umrining oxirigacha adabiyotga sadoqat bilan xizmat qiladi.

Keyinchalik Oybekning boshqa asarlari ham ketma-ket nashr etila boshlaydi. "Oltin vodiyan shabadalar" kitobi xalq orasida katta shuhrat qozonadi. Kitobxonlardan kelgan xatlarning birida kutubxonalarda eng ko'p o'qiladigan, kitobxonlar qo'lidan tushmaydigan asarlardan biri aynan "Oltin vodiyan shabadalar" ekani ta'kidlanadi. Bu xalq muhabbati Oybek uchun eng katta mukofot bo'lgan. Oybek bir asar yozishga kirishganida shu qadar asar ichiga kirib ketardiki atrofdagi voqealarga e'tibor bermasdi. Bu haqida ayoli Zarifa Saidnosirova shunday degandi: "Bir kuni Tashmi insitutiga ketayotganimda tranvayga chiqsam Oybek nimanidir hirgoya qilib, daftariga hayolidagi narsalarni yozardi. Men uni korib yoniga borib

o'tirdim va u buni sezmedi. Shunda bir rus ayoli tranvayda ham tinchlik yoq degandek oybekka kesatib o'rnidan turib ketdi. Bunga esa Oybek parvo qilmadi. tranvay so'ngi bekatga yetganda men uning yelkasidan tutib kelganimizni aytganimda menga hayron qarab sen qachon chiqganidin" deb savol bergandi deb aytgan.

Biroq yozuvchining hayoti faqat e'tirof va mukofotlardan iborat bo'lmagan. Uning yozgan asarlaridan dushmanlari turli ma'nolar chiqarib uni hukumatga yomon korsatishmoqchi bolgan. Keyinchalik Oybek xalq dushmani sifatida qaralyotgan paytlarida xatto o'z uyidan ham chiqolmay qolgan. Taxminan 1.5 shunday ijod qilgan. Shu davrda Qutlug' qon asarini yozib tugatgan. Ammo har qanday qiyinchilik holatida ham xalqqa yordam berishda to'xtamaganligi isbotini ko'rishimiz mumkin.

Gulrang Toshmuhamedova xotiralarida shunday yozadi: *"Uyimizga ko'ppchilik yordam va pul so'rab kelgan. Dadam bergan pullari qaytmasligini bilsa ham ularga yordam berganva doim bundan mamnun bolgan"* deydi. Bundan tashqari Oybek zamondoshlari xotirasida kitobida Emin Usmonov xotiralarida Oybek urush yillarida bozorda muhtoj ayolga yordam bergani tasvirlanadi.

Yozuvchi ayolning sotolmay turgan sholchasini olmaydi, biroq unga moddiy ko'mak ko'rsatadi va hech qanday minnat kutmasdan ketib qoladi. Keyinchalik ayol Oybek kim bo'lganini bilib qoladi va ushbu sholchani umrining oxirigacha yodgorlik sifatida asrab saqlaydi.

Ammo u og'ir xastalik bilan uzoq yillar kurashgan. 1959 yil 15 avgustda yozgan she'rida bu holat o'z aksini topadi:

Xastaman...

Fikrga, tuyg'uga to'lib

Oy menga hamqadam, sokin yuraman.

Sog'aysam bir kuni yozaman,

Toyib hislarga, qalbimni qo'shib yozaman.

U hali ijod qilayotgan paytda sog'ligi yomonlashgan bo'lsa-da, yozishni to'xtatmagan.

Oxirgi she'ri shunday so'zlar bilan tugaydi: "Oy menga hamqadam sokin yuramen, sog'aysam bir kuni yozamen, to'yib hislarga qalbimni qo'shib yozamen." Bu so'zlar uning ijodiy ruhiyati va sabrini, shuningdek, xalq va adabiyotga bo'lgan fidoyiligini ko'rsatadi. Vafot yili: 1968 yil 18 avgust. Hozirgi kunda, Toshkentda Oybek uy-muzeyi mavjud bo'lib, uning hayoti va ijodini yodga oladi. Toshkent metrosida "Oybek" metro stansiyasi uning sharafiga nomlangan.

Asarlari maktab va oliy o'quv yurtlarida o'rganiladi, milliy madaniyat va adabiyot merosi sifatida qadrlanadi. Oybekning 120 yilligi 2025-yil nishonlandi.

Xulosa. Oybek ijodiga nazar tashlar ekanmiz, uning butun faoliyati davomida bir asosiy g'oya yetakchi bo'lganini ko'ramiz: insonni anglash, jamiyatni tushunish va tarixdan saboq chiqarish. Uning asarlarida shaxs va jamoat muammosi doimo dolzarb bo'lib, bugungi jamiyat bilan hamohang tarzda talqin etiladi. Oybek bizni o'tmishga qaytarish uchun emas, balki kelajak haqida o'ylashga undaydi. Shu bois uning ijodi bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, aksincha, yanada chuqurroq anglashni talab qiladigan bebaho ma'naviy merosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Oybek. Navoiy. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1942.
2. Oybek. Qutlug' qon. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1941–1942.

3. “Ozbekiston xalq yozuvchisi Oybek bilan A. Naumov suhbat”//Drujba Narodov. 1966 yil, avgust.
4. Zarifa Saidnosirova. Oybegm mening. Toshkent: Sharq, 2019
5. Ibrohimova, Ra’no. Do’sti ko’p, dushmani yo’q odam — Oybek haqida qizi Gulrang Toshmuhammedova xotiralari // <https://oyina.uz/uz/article/743>
6. Usmonov, Emin. Oybek zamondoshlari xotirasida. Yodgorlik.Adabiyot va San’at nashriyoti. Toshkent - 1979.